

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Arxitektura, qurilish, dizayn va shaharsozlik fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Urbanizatsiya sharoitida uy-joylar loyiha yechimlarining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi va iste'mol sifatini kompleks baholash metodologiyasini ishlab chiqish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - jadallashayotgan urbanizatsiya sharoitida respublikamizda uy-joy qurilishi, shuningdek uy-joy fondini saqlash va uni boshqarish tizimining amaldagi holati o‘rganiladi va tahliliy ma’lumotlar tayyorlanadi; - zamonaviy axborot-kommunikatsiya va raqamli texnologiyalarni joriy qilish asosida uy-joy qurilishi tuzilmasini takomillashtirish modeli ishlab chiqiladi - aholining uy-joy bilan ta’minlanish darajasini baholash indikatori sifatida “uy-joy arzonligi indeksi” va ularning hayotiy davri(sikli)dagi iste’mol sifati ko‘rsatkichlari ishlab chiqiladi; Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Tadqiqot natijalari Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi tizimidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.